TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIDA IJTIMOIY-MA’NAVIY OMILLAR.

Abduraxmonova Manzura Manofovna
Farg‘ona davlat universiteti
Sotsiologiya fanlari doktori (DSc), professor
Dadaboyev Farhodjon Fozilovich
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi
falsafa fanlar bo‘yicha falsafa doktori(PhD)
ORCID iD: 0009-0009-0441-9507

Annotatsiya:
Tadbirkorlikning rivojlanishidagi ijtimoiy-ma’naviy omillar orqali kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik bilan shug‘ilanadigan insonlarni alarga yaratilgan imkoniyat tanishtirish va muammolarni bartaraf etishdagi taklif va mulohazalar berildi. Tadbirkorlik faoliyati mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiyotining barqaror rivojiga hamda aholi bandligini ta’minlashda, kambag‘alikni qisqartirishda, gender muammolarini bartaraf etishda, yoshlarni kasb-hunar egalashida aynan kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikning ijtimoiy hissasi yuqoridir
Kalit so‘zlar: tadbirkorlik biznes, ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy iqtisodiy, bandlik, aholi, oila, kichik biznes, mehnatsevar, xolollik.

KIRISH

O‘zbekiston ijtimoiy–iqtisodiy taraqqiyotida tadbirkorlik faoliyati asosiy olimlardan hisoblanadi. Iqtisodiy islohotlarni yangi bosqichga ko‘tarish bu esa kichik biznes va oila tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bilan bog‘liq. Ularga imkoniyatlar yaratish va ko‘mak berish, turli muammolarini aniqlab, bartaraf etish, davlat va jamiyatning alohida vazifalaridan biri hisoblanadi. O‘zbekistongda kambag‘alikni qisqartirishda, aholi bandligini ta’minlashda, gender muammolarini bartaraf etishda, yoshlarni kasb-hunar egalashida kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik orqali bilimlarini oshirish dolzarb masala sifatida ijtimoiy ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan bir vaqtda oila farovonligi va hayotining sifat darajasi ko‘p jihatdan kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromadga ham bog‘liq hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni ishlab chiqarish hamda xizmatlar ko‘rsatish salohiyatini yanada oshirish yo‘llarini asoslash dolzarb masalalar qatoriga kiradi. O‘zR Prezidenti 2018 yil 7 iyunda PQ-3777-son “Har bir oila – tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risidagi Qarorida “... ijobiy natijalarga erishgan ishbilarmonlik tajribasiga ega tadbirkorlarni mahallalarda yangi biznes faoliyati bilan shug‘ullanishni boshlagan oilalarga biriktirish – mini klasterlar tashkil etish” vazifasi qo‘yilgan [1].

Xorijiy mamlakatlardagi tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes va oila tadbirkorligiga qaratilgan tashabbus nafaqat bandlikni ta’minlashda, balki daromadlarni tekis taqsimlash, bilan bir qatorda ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishning barqaror omillari sifatini oshirishda tobora ko‘proq ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda dunyo mamlakatlarida kichik biznesning aksariyat qismini oilaviy korxonalar tashkil qiladi. Oila

tadbirkorlikni tashkil[2] etishning mazkur shaklining ijtimoiy va iqtisodiy ustunliklari, uning subyektlari faoliyat ko‘rsatishining yuqori samaradorligini, uzoq vaqt davom etishini va ularning jadal rivojlanishini ta’minlaydi. Yevropa davlatlari yalpi miliy mahsulotining (YAMM) 40-50 foizini, Osiyo mamlakatlarida 65 foizdan 82 foizgachasini, Lotin Amerikasida 70 foizga yaqinini oila biznesi ishlab chiqaradi. AQSH iqtisodiyotidagi oilaviy biznes ulushi 95 foizdan ko‘pni tashkil qiladi,[3] ularga iqtisodiyotdagi umumiy bandlarning 62 foizi to‘g‘ri keladi [4].

Bugangi kunda ko‘plab iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda aynan kichik biznes va oila tadbirkorligini tashkil etish sohasidagi tadqiqotlarni olib boruvchi, uning manfaatlarini himoyalovchi va oilaviy korxonalarning faoliyat ko‘rsatishi borasida tajriba almashish uchun munozara maydonlarini tashkil etuvchi maxsus birlashmalar faoliyat yuritadi. Bu aholini tadbirkorlik faoliyatiga faol jalb qilishni kengaytirish, oilaviy ish an’analarini rivojlantirish va oila tadbirkorlari sulolasini shakllantirish imkonini beradi. Bu bilan oilaviy tadbirkorlik nafaqat jamiyatda barqaror ijtimoiy – iqtisodiy vaziyatni ta’minlaydi, balki kelajakka yo‘naltirilgan ijobiy innavatsion ishbilarmonlik bir so‘z bilan aytganda tadbirkorlik muhitini shakllantiradi.

Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan bir qancha tadbirkorlarga imkoniyatlar va ijtimoiy ko‘maklar farmon, qonunlar ishlab chiqilmoqda. Bunday imkoniyatdan aholidan ko‘plab qiziqish hohish mavjud bo‘lsada insonlarning dunyoqarashi haligacha tayyor emasligi, ijtimoiy xayotda ko‘rinmoqda. Mamlakatimiz aholisi haligachi davlat siyosatida, ijtimoiy xayotda, tadbirkor, ishbilarmon, tashabuskor, yangi g‘oya haqida iqtisodiy-ijtimoiy muammolarga duch kelishilo‘zga tashlanmoqda.Ushbu maqolada yoritayotgan asosiy muammo shundan iboratki, tadbirkorlikning rivojlanishidagi ijtimoiy-ma’naviy omillar ochib berishga harakat qilamiz. Tadqiqotimiz kuzatuv va ijtimoiy xayotdagi insonlardan o‘tkazgan so‘rovlarimizdar ko‘rish mumkin. Ko‘plab insonlarni oldiga tadbirkorlik qilishni hoxlaysizmi? degan savol qo‘ysak 80 % inson albatta hohlayman deydi, shulardan 60% qanday qilishni bilmayman,20% insonlar tadbirkorlik qiyin to‘siqlar ko‘p, qilolmayman deydi. Yuqiridagi 60%dan 40% hohlayman lekin tushunmayman menga ko‘mak kerak deydi.20% hohlayman iqtisodiy mablag‘ yo‘q deydi. Shundan ko‘rinib turibdiki insonlar o‘zi hohlagan kasb-hunarlari asosida tadbirkorlik qilishga ikkilanadi, hohlaydi lekin qonuniy tadbirkorlik faoliyatini yuritishga qiynaladi.

METODOLOGIYASI

Ingliz iqtisodchisi F. Klark kichik biznesga bag‘ishlagan kitobida quyidagicha ta’kidlaydi: «Shuni tan olish lozimki, kichik tadbirkorlikning mohiyati nafaqat maksimal foyda olishda, balki erkinlik, ishning ijodiy xarakterda ekanligi, o‘ziga xos mustaqil turmush tarzi kabi nomoddiy ehtiyojlarni qondirishda ham o‘z aksini topadi. Buni esa hech qachon foyda va zarar raqamlarida ifodalab bo‘lmaydi»[5] J. Shaten va R. Gordon Fransuz iqtisodchilari olimlar tomonidan tadbirkorlik faoliyati to‘g‘risida Hunarmandlar va kichik xo‘jaliklar. Ular asosiy daromadlarini bevosita ishlab chiqarish funksiyasidan oladilar deb o‘z fikr mulohazalar berilib o‘tganlar.

Bu borada “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi to‘g‘risida Nizom (O‘zR VM 19.04.2022 y. 195-son qaroriga 1-ilova)” qonuniy

hujjatlar amalga oshirish mexanizmi mavjud. Bugunshi insonlarimizga oila tadbirkorligini tashkil etish, uni davlat tomonidan tartibga solish, rag‘balantirish usullari va mexanizmlari qiyosiy tahlil qilindi. Kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik umumiy olganda tadbirkorlik faoliyati quyidagi ma’naviy- ijtimoiy jihatlar orqali namoyon bo‘ladi.

- ✓ xolol.
- ✓ mehnatsevar.
- ✓ tashabbuskor.
- ✓ o‘z qobiliyatlarini namoyon etish.
- ✓ yangilikka intiluvchi.
- ✓ uzoqni ko‘ruvchi.
- ✓ tavvakalchi.
- ✓ o‘z sohasini yaxshi ko‘ruvchi.

Ushbu jihatlar orqali inson tadbirkorlikning qaysi turini tanlamasin unda ijitimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga erishish tezlashadi. Bu esa mamlakatimizda amaldagi qonunchilikka muvofiq, tadbirkorlik faoliyati subyektlari quyidagi huquqlarga ega ekanligini anglatadi:

-qonun hujjatlariga muvofiq o‘ziga tegishli mol-mulkka egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish;

-mustaqil ravishda ishlab chiqarish dasturini shakllantirish, mahsulot yetkazib beruvchilarni va o‘z mahsuloti (ishlari, xizmatlari)ning iste’molchilarini tanlash;tadbirkorlikdan cheklanmagan mikdorda daromad (foyda) olish va uni o‘z ixtiyoriga ko‘ra tasarruf etish;

-o‘z mahsuloti (ishlari, xizmatlari)ni ishlab chiqarish chiqindilarini bozor konyunkturasidan kelib chiqib, mustaqil ravishda belgilanadigan narxlar va tariflar bo‘yicha yoki shartnoma asosida realizatsiya qilish;

-binolar, inshootlar, uskunalar va boshqa mol-mulkni olish va (yoki) ijaraga olish, shu jumladan lizing yo‘li bilan;

-belgilangan tartibda tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish.[6]

O‘zbekistonda tadbirkorlik faoliyati subyektlaridan oilaviy tadbirkorlikning huquqiy asosi yaratilishi milliy an’analarimizga, xo‘jalik yuritish faoliyatining mavjud holatiga to‘la mos bo‘lib tushdi. Oilaviy tadbirkorlik oila a’zolari tomonidan tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olish maqsadida amalga oshiriladigan tashabbuskorlik faoliyati hisoblanadi. Oilaviy tadbirkorlik ijtimoiy subektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir. Oilaviy korxona uning ishtirokchilari tomonidan tovarlar ishlab chikarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiy mol-mulk, shuningdek, oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladi. Oilaviy korxona faoliyatni faqat yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshirishi mumkin.[7]

Hulosa va takliflar sifatida shuni aytish mumkinki, mustaqillik yillarida ijtimoiy-iqtisodiyotni yanada liberallashtirish va iqtisodiyotda davlatning ulushini qisqartirish

siyosatini olib borish birinchi navbatda, kichik biznes va tadbirkorlik subektlarini mustahkamlash va mulk egasi huquqini himoya qilishga yo‘naltirildi. Soliq yukining kamaytirilishi xususiy investitsiyalarini rag‘batlantirdi va iqtisodiy o‘sishning yuqori sur’atlari uchun barqaror manba yaratdi.Tadbirkorlikning rivojlanishidagi ijtimoiy-ma’naviy omillar orqali tadbirkorlikga qiziqan инсонлар ўртасида ижтимоий тарғибот ишларини olib borish va ularni muammolarini aniqlab, bartaraf etishga sezilarni ishlar olib borilmoqda.

Tadbirkor birinchi navbatda o‘ziga ishonchi, hunar va kasblarini takomillashtirish bo‘yicha bilim, bozor talabini o‘rganish, milliy an’analarga mos holda zamonaviy uslublarni yuzaga chiqarish. Sifat va mahsulotni haridorligini aniqlash bo‘yicha o‘rganish lozimdir

O‘zbekistonda oilaviy tadbirkorlarning (kichik korxonalar) miqdoriy mezoni sifatida yagona ko‘rsatkich – korxonada band bo‘lgan ishchilar sonidan foydalaniladi. Fikrimizcha, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini aniqlashda ikkita mezon – korxonada band bo‘lgan ishchilar soni va korxonaning yillik tovar aylanmasidan, sifat mezonlari tariqasida esa korxona egasining mehnat va korxonani boshqarishga munosabati hamda ishlovchilar bilan aloqasi darajasidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Ijtimoiy-falsafiy jihatdan kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik quyidagi afzalliklarga ega:

-kichik ishlab chiqarish bozor talabi o‘zgarishlariga tezda moslashadi. Yirik korxonalarda yangi mahsulot ishlab chiqarishga o‘tish yoki yangi texnologiyani joriy etish yirik sarf-xarajatlarni talab etadi va bu jarayonda ishlab chiqarish hajmining pasayishi va daromadlarning kamayishi yuz beradi. Kichik korxonalar esa o‘z ishlab chiqarishlarini osonlik bilan, yirik sarf-xarajatlarsiz yangi mahsulot tomon burishlari mumkin;

-kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik kishilarda ishbilarmonlik, ijodkorlik, tashabbuskorlik qobiliyatlari rivojlanishiga olib keladi, har bir kishiga o‘z qobiliyatlarini namoyon qilish, g‘oyalarini hayotga tatbiq etish imkonini beradi. Yirik korxonalarda esa «tenglik» tamoyili amal qiladi. Ko‘p hollarda tashabbuskor kishilar yirik korxonalarda ishlar ekan o‘z tashabbuslari va harakatlariga munosib javob topa olmaydilar;

-keng tarmoqli Kichik biznes va oilaviy tadbirkorlik tizimining rivojlanishi mahalliy resurslardan va ishlab chiqarish chiqindilaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Yirik korxonalarning bunday faoliyatdan oladigan foydasi kam bo‘lganligi tufayli bunga alohida e’tibor qaratmaydilar;

-kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikda talabnoma xarajatlar va boshqaruv apparatiga sarflanadigan xarajatlar yirik korxonalarga nisbatan ancha kam;

-kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikni kapital sig‘imi yirik korxonalarga nisbatan ancha past va o‘zini-o‘zi qoplash muddati ancha tez;

-kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi mehnatni intensivlashtirish uchun qulay sharoit yaratadi, unda yirik korxonalardan farqli o‘laroq ishlab chiqarish natijalari va ishlovchilar manfaatlari o‘rtasidagi bevosita bog‘liqlik yaqqol ko‘rinib turadi.

Tadbirkorlarning ma’naviy salohiyati va ijtimoiy jarayonlarga moslashunchanligi, izoqni ko‘zlagan holdagi iqtisodiy ong mustahkam tarkib topgan insonlar faoliyat

boshlasa bunday tadbirkorlar faoliyati xech qachon bankrotlik holatiga tushmaydi ijtimoiy-ma’naviy omillar orqali aksincha rivojlanib boradi. Har bir katta g‘alaba, kichik-kichik yutuqlardan boshlanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YHATI.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. “Har bir oila – tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risida. http://Andijon.uz/news/

(Decision of the President of the Republic of Uzbekistan. About the implementation of the "Every family is an entrepreneur" program http://Andijon.uz/news/)

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishni harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947 O‘zR Qonun xujjatlari to‘plami 2017 y.,6- son,70 modda.5

(Decree of the President of the Republic of Uzbekistan. PF-4947 Collection of legal documents of the Republic of Uzbekistan "On the action strategy for the further development of the Republic of Uzbekistan", 2017, No. 6, Article 70. 5)

3. Календжян С.О., Волков Д.А. Семейное предпринимательство: анализ Российской практики // Российский внешне экономический вестник. Мировая экономика. №9,2011. С. 17-20. 6

(Kalendzhyan S.O., Volkov D.A. Family entrepreneurship: analysis of Russian practice // Russian Foreign Economic Bulletin. World economy. No. 9, 2011. pp. 17-20. 6)

4. Why Family Business are better Equlpped to go Global.// economictimes.indiatimes.com/articleshow/66860347.cmsutm_

5. Рубе В.А. Сотрудничество или эксплуатация? Мелкие бизнес глазами буржуазных экономистов. –М.: «Мысль», 1986. – С. 34

(Roubaix V.A. Cooperation or exploitation? Small business through the eyes of bourgeois economists. -M.: "Thought", 1986. - S. 34)

6. O‘zbekiston Respublikasi «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonunining 8-moddasi. (Article 8 of the Law of the Republic of Uzbekistan "On Guarantees of Freedom of Entrepreneurial Activity".)

7. O‘zbekiston Respublikasining «Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida»gi Qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012 y., 17-son, 188-modda. No. 17, Article 188)